Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmataliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish.....	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников.....	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

TA'LIM MARKAZLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim markazlari sharoitida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi metodologik, psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ faoliyatida muhim o'rin tutuvchi asosiy ko'nikmalardan biri sifatida talqin etiladi. Maqolada nutq kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda baholash mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ta'lim markazlarida nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan metodologik model va amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, ta'lim markazlari, metodologiya, interaktiv ta'lim, og'zaki va yozma nutq, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article examines the development of students' speech competencies in educational centers from methodological, psychological, and pedagogical perspectives. Speech competence is interpreted as one of the key skills that plays a significant role in an individual's communicative activity. The study provides a scientific analysis of the structural components of speech competence, the factors influencing its development, modern pedagogical approaches, interactive methods, and assessment mechanisms. In addition, a methodological model and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of speech development in educational centers are proposed.

Key words: speech competence, communicative competence, educational centers, methodology, interactive learning, oral and written speech, pedagogical technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития речевых компетенций учащихся в условиях образовательных центров с методологической, психологической и педагогической точек зрения. Речевая компетенция интерпретируется как одно из ключевых умений, занимающих важное место в коммуникативной деятельности личности. В работе научно анализируются структурные компоненты речевой компетенции, факторы, влияющие на её формирование, современные педагогические подходы, интерактивные методы и механизмы оценивания. Также предлагаются методологическая модель и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности развития речи в образовательных центрах.

Ключевые слова: речевая компетенция, коммуникативная компетенция, образовательные центры, методология, интерактивное обучение, устная и письменная речь, педагогические технологии.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida shaxsning nutqiy faoliyati va muloqot madaniyati ta'lim tizimining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, nodavlat ta'lim markazlari, til o'rganish markazlari hamda qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Nutq kompetensiyasi nafaqat til bilimlarini egallash, balki fikrni mantiqiy, aniq va ifodali bayon etish, muloqot jarayonida samarali ishtirok etish hamda ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolaning asosiy maqsadi ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali metodologiyasini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Nutq kompetensiyasi – bu shaxsning og'zaki va yozma nutq orqali o'z fikrini aniq, mantiqiy va kommunikativ vaziyatga mos tarzda ifodalay olish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: leksik va grammatik bilimlar; talaffuz va fonetik ko'nikmalar; nutqiy strategiyalar; muloqot madaniyati va pragmatik bilimlar. Pedagogik adabiyotlarda nutq kompetensiyasi kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi ^[1].



Nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ faoliyatida markaziy o'rin tutib, u o'quvchining fikrni anglash, qayta ishlash va ifodalash qobiliyatini belgilaydi. Zamonaviy pedagogika va til o'qitish metodikasida nutq kompetensiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta asosiy turlarga ajratiladi. Ushbu kompetensiyalarni alohida emas, balki kompleks va tizimli tarzda rivojlantirish ta'lim markazlari faoliyatining muhim vazifalaridan biridir.

Og'zaki nutq kompetensiyasi (dialogik va monologik nutq) – o'quvchining real muloqot jarayonida o'z fikrini og'zaki tarzda aniq, ravon va kommunikativ vaziyatga mos holda ifodalay olish qobiliyatini anglatadi. U ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Dialogik nutq kompetensiyasi ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Ushbu kompetensiya quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- savol berish va savollarga mos javob qaytarish;
- suhbatni boshlash, davom ettirish va yakunlash;
- suhbatdosh fikriga munosabat bildirish;
- muloqot qoidalariga rioya qilish.

Ta'lim markazlarida dialogik nutqni rivojlantirish o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi va nutqiy ishonchni mustahkamlaydi.

Dialogik nutq quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- ikki tomonlama muloqot – kamida ikki ishtirokchining mavjudligi;
- navbat bilan so'zlashish – replikalar almashuvi;
- situativlik – nutqning vaziyatga bog'liq holda shakllanishi;
- spontanlik – tayyorlangan va tayyorlanmagan nutq unsurlarining mavjudligi;
- emotsionallik – ohang, imo-ishora va mimikalar bilan boyitilishi.

Ushbu xususiyatlar dialogik nutqni monologik nutqdan farqlaydi.

Dialogik nutq kompetensiyasi lingvistik komponent (leksik zaxira, grammatik strukturalarni to'g'ri qo'llash, talaffuz va intonatsiya), pragmatik komponent (nutqning vaziyatga mosligi, suhbat maqsadini tushunish, muloqot strategiyalaridan foydalanish) hamda ijtimoiy-psixologik komponentdan (muloqotga kirishish tayyorligi, suhbatdoshga hurmat, empatiya va faol tinglash ko'nikmalari) iborat.

Dialogik nutq kompetensiyasi o'quvchilarda muloqot madaniyatini, ijtimoiy moslashuvni, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni hamda o'z fikrini himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim markazlarida dialogik nutqni rivojlantirish o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Dialogik nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ rivojida muhim o'rin tutadi. Ta'lim markazlarida ushbu kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning nutqiy faolligi, ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Metodik jihatdan asoslangan yondashuv dialogik nutqni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Monologik nutq kompetensiyasi o'quvchining ma'lum bir mavzu bo'yicha izchil va mantiqiy tarzda fikr bayon eta olish qobiliyatini anglatadi. U fikrning mantiqiy ketma-ketligi, nutqning tuzilishi (kirish, asosiy qism, xulosa), leksik boylik va grammatik aniqlik hamda auditoriya oldida nutq so'zlash madaniyatini o'z ichiga oladi. Monologik nutq prezentatsiyalar, hikoya qilish va fikr bildirish mashqlari orqali rivojlantiriladi. Ushbu kompetensiya o'quvchilarning akademik, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Monologik nutq izchillik va mantiqiylik, tuzilmalanganlik, oldindan rejalashtirilganlik, uzluksizlik hamda nutqiy vositalarning boyligi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar monologik nutqni samarali va tushunarli qiladi.

Monologik nutq kompetensiyasi lingvistik, mantiqiy-strukturaviy, diskursiv va psixologik komponentlardan tashkil topadi. Ushbu kompetensiyani ta'lim markazlarida tizimli va metodik asosda rivojlantirish o'quvchilarning nutqiy madaniyati va o'zini ifodalash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Yozma nutq kompetensiyasi o'quvchining fikrini yozma shaklda grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqan izchil va uslubiy jihatdan mos tarzda ifodalay olish qobiliyatidir. Yozma nutqni rivojlantirish o'quvchilarning akademik savodxonligini oshiradi hamda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Yozma nutq rejalashtirilganlik, mantiqiy izchillik, tuzilmaviy aniqlik, grammatik to'g'rilik va uslubiy moslik bilan tavsiflanadi. Yozma nutq kompetensiyasi lingvistik, mantiqiy-strukturaviy, diskursiv va metakognitiv komponentlardan iborat bo'lib, u o'quvchilarning akademik va kasbiy rivojida muhim o'rin tutadi.

Tinglab tushunish kompetensiyasi o'quvchining og'zaki nutqni eshitish orqali anglash, tahlil qilish va mazmunini to'g'ri talqin eta olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya nutqiy faoliyatning eng muhim, biroq ko'pincha yetarlicha e'tibor berilmaydigan turi hisoblanadi.

Tinglab tushunish vaqtga bog'liqlik, qaytarib bo'lmazlik, kontekstga tayanuvchanlik, faol idrok va psixologik omillarga bog'liqlik kabi xususiyatlarga ega. Bu kompetensiya lingvistik, semantik, pragmatik va kognitiv komponentlardan tashkil topadi.



Tinglab tushunish kompetensiyasi nutq faoliyatining asosi bo'lib, qolgan nutq kompetensiyalarining samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim markazlarida ushbu kompetensiyani metodik asosda rivojlantirish o'quvchilarning muloqot madaniyati, o'quv motivatsiyasi va akademik muvaffaqiyatini oshiradi.

O'qib tushunish kompetensiyasi o'quvchining yozma matnni anglash, tahlil qilish va undan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya matn mazmunini tushunish, asosiy g'oyani aniqlash, muhim ma'lumotlarni tanlab olish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini qamrab oladi.

O'qib tushunish vizual idrok, qayta o'qish imkoniyati, individuallik, kontekstga tayanuvchanlik va faol tafakkur bilan tavsiflanadi. U lingvistik, semantik, kognitiv va metakognitiv komponentlardan iborat.

Nutq kompetensiyasining barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni alohida rivojlantirish yetarli samara bermaydi. Shu sababli ta'lim markazlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar, kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda faol va interaktiv metodlar orqali nutq kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Nutq kompetensiyasining rivoji o'quvchining psixologik holati, motivatsiyasi va emotsional barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'rquv va nutqiy xavotir (speech anxiety) o'quvchilarning og'zaki nutq faoliyatini cheklaydi. Shu sababli ta'lim markazlarida qulay psixologik muhit yaratish muhim metodologik shart hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy til ta'limi metodikasida yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, H. D. Brown til o'rganish jarayonida nutq faoliyatini rivojlantirish kommunikativ yondashuv va samarali baholash tizimi bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab bergan. Uning tilni o'qitish tamoyillariga oid tadqiqotlarida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchi faolligi, motivatsiya va formativ baholashning muhim o'rni ta'kidlanadi.

Shuningdek, E. Horwitz nutqiy xavotirning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilib, psixologik omillar o'quvchilarning og'zaki nutq faolligini cheklashi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Bu yondashuv ta'lim markazlarida qulay psixologik muhit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek til ta'limi metodikasida nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi J. J. Jalolov tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, unda og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda kommunikativ mashqlar, interaktiv metodlar va tizimli yondashuv muhim deb baholanadi. Jalolovning ilmiy qarashlari ta'lim markazlari sharoitida nutqiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

R. C. Gardner esa til o'rganishda motivatsiyaning hal qiluvchi omil ekanligini isbotlab, nutq kompetensiyasining rivoji o'quvchining ichki ehtiyoji va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy yondashuvlar ta'lim markazlarida nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasining asosiy tamoyillariga kommunikativlik, faollik va mustaqillik hamda individual yondashuv tamoyillari kiradi. Kommunikativlik tamoyiliga ko'ra, ta'lim jarayoni real muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim bo'lib, mashg'ulotlar davomida o'quvchilar fikr almashish, bahs-munozara va rolli o'yinlar orqali faol ishtirok etishi zarur. Faollik va mustaqillik tamoyili o'quvchilarning mustaqil nutqiy faoliyatini rag'batlantirish, ularni erkin fikrlashga undash orqali nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Individual yondashuv tamoyili esa har bir o'quvchining nutqiy darajasi, psixologik xususiyatlari va o'rganish sur'atini hisobga olishni taqozo etadi.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirishda munozara va debatlar, rolli o'yinlar, "aqliy hujum" hamda jamoaviy loyiha ishlari kabi interaktiv metodlar samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning og'zaki nutq faolligini oshiradi, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi va kommunikativ ishonchni shakllantiradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan multimedia vositalari, audio va video materiallar hamda onlayn platformalardan foydalanish nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, tinglab tushunish va talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda AKT muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini samarali boshqarish maqsadida muntazam monitoring olib borilishi zarur. Baholash jarayoni nutqning ravonligi, grammatik to'g'riligi, leksik boyligi va kommunikativ mosligi kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Formativ va summativ baholash usullarini uyg'unlashtirish nutqiy rivojlanish dinamikasini aniqlash va o'quvchilarning individual yutuqlarini baholash imkonini beradi [3].

O'quvchilarning nutq kompetensiyalarini samarali rivojlantirish tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan metodologik yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada ta'lim markazlari uchun taklif etilayotgan metodologik model besh o'zaro bog'liq bosqichdan iborat bo'lib, u o'quvchilarning nutqiy rivojini izchil va barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Diagnostika bosqichi metodologik modelning boshlang'ich va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning nutq kompetensiyalarining hozirgi holati aniqlanadi. Diagnostika jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq darajasi, tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalari baholanadi, nutqiy xatolar, bo'shliqlar hamda qiyinchiliklar aniqlanadi va individual farqlar hisobga olinadi. Diagnostika testlar, suhbatlar, yozma ishlar, audio va video topshiriqlar hamda kuzatuv metodlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqich natijalari keyingi bosqichlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Diagnostika natijalariga tayangan holda ta'lim jarayoni rejalashtiriladi va aniq maqsadlar belgilanadi. Rejalashtirish va maqsad qo'yish bosqichida qisqa va uzoq muddatli nutqiy maqsadlar aniqlanadi, o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlari hisobga olinadi, shuningdek o'quv mazmuni va mashg'ulot shakllari tanlanadi. Rejalashtirish jarayonida SMART tamoyillariga (aniq, o'lchab bo'ladigan, erishish mumkin bo'lgan, muhim va vaqt bilan chegaralangan) asoslanish tavsiya etiladi, bu esa nutq kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan va samarali qiladi.

Interaktiv mashg'ulotlar bosqichi metodologik modelning markaziy qismi bo'lib, nutq kompetensiyalarini bevosita rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu bosqichda dialog va munozaralar, rolli o'yinlar va situativ mashqlar, jamoaviy loyiha ishlari, taqdimotlar va ijodiy topshiriqlar, shuningdek multimedia va raqamli resurslardan foydalanish keng qo'llaniladi. Interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, nutqiy ishonchini mustahkamlaydi va real kommunikativ vaziyatlarda nutqdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Refleksiya va baholash bosqichi o'quvchilarning o'z nutqiy faoliyatini anglash va baholashiga xizmat qiladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi, o'z-o'zini baholash hamda o'zaro baholash usullari qo'llaniladi, formativ baholash orqali rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Baholash jarayonida nafaqat natija, balki jarayon ham e'tiborga olinadi, bu esa o'quvchilarda ijobiy motivatsiyani saqlash va nutqiy xavotirni kamaytirishga yordam beradi.

Natijalarni tahlil qilish metodologik modelning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda belgilangan maqsadlarga erishilganlik darajasi aniqlanadi, o'quvchilarning nutq kompetensiyalaridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi, qo'llanilgan metod va texnologiyalarning samaradorligi baholanadi hamda keyingi o'quv bosqichlari uchun taklif va xulosalar ishlab chiqiladi. Natijalarni tahlil qilish ta'lim jarayonini takomillashtirish va metodologik modelni doimiy ravishda rivojlantirib borishga imkon beradi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli va uzluksiz pedagogik jarayon bo'lib, u ilmiy asoslangan, tizimli va metodologik yondashuvni talab etadi. Nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ faoliyatida muhim o'rin tutgani sababli, uni shakllantirish jarayoni faqat til bilimlarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, o'z fikrini erkin va aniq ifodalashi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun diagnostika, rejalashtirish, interaktiv mashg'ulotlar, refleksiya va baholash hamda natijalarni tahlil qilish bosqichlarining o'zaro uzviy bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o'quvchilarning nutqiy rivojida barqaror ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi. Ayniqsa, kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, nutq kompetensiyasining rivoji o'quvchining psixologik holati, motivatsiyasi va emotsional barqarorligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Qulay psixologik muhit yaratish, o'quvchilarda o'ziga ishonchni shakllantirish va nutqiy xavotirni kamaytirish nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayonda formativ va summativ baholash usullarini uyg'unlashtirish o'quvchilarning individual yutuqlarini aniqlash va ularning rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim markazlarida nutq kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida mashg'ulotlarni integratsiyalashgan holda tashkil etish, interaktiv metodlardan tizimli foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuvlar ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutqiy rivojini ta'minlash, ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash va umumiy ta'lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nutqiy xavotir va ta'lim jarayoni: Horwitz, E. Language Anxiety and Classroom Performance. 2001.
2. Baholash metodlari: Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. 2004.
3. Brown, H. D. Teaching by Principles. Longman, 2001.
4. Jalolov, J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
5. Gardner, R. C. Motivation and Language Learning. 2010.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.